

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XALLIYEV JASURBEK ISKANDAROVICH

OGAHY TARIXIY ASARLARIDA MA'RIFIY-FALSAFIY LEKSIKA

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Xalliyev Jasurbek Iskandarovich

Ogahiy tarixiy asarlarida ma'rifiy-falsafiy leksika..... 5

Khalliev Jasurbek Iskandarovich

"Educational-philosophical lexicon in the historical works of
Agahi".....27

Халлиев Жасурбек Искандарович

Просветительско-философская лексика в исторических трудах
Агахи.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI**

ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

XALLIYEV JASURBEK ISKANDAROVICH

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA MA'RIFIY-FALSAFIY LEKSIKA

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1262 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'razboyev Abdulla Durdibayevich,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ismailov G'ulom Mirzayevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Sharipov Fazliddin Galiyevich,
filologiya fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashning 2025 yil "4" yanvar soat 14'00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-759 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "23" dekabr tarqatildi.
(2024-yil "23" dekabr dagi 41 raqamli reestr bayonnomasi.)



B.I.Abdullayev,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
raisi v.b., fizika-matematika fanlari
doktori, professor

S.S.Atajonov,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.f.d. (PhD),

A.I.Primov,
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi v.b.,
filol.f.n. dotsent

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida har bir tilning leksik fondi shu tilda soʻzlashuvchi xalqning tarixini, tafakkur tarzini, milliy qadriyatlari, anʼana va urf-odatlarini oʻzida aks ettirishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan har bir tilning lugʻat tarkibidagi soʻzlarni mavzuiy guruhlarini har tomonlama tekshirish millat tarixini oydinlashtirish, uning nimalarga qodir ekani haqida xolis xulosalar chiqarish kabilarga xizmat qilishi aniq. Tildagi har bir soʻz xalq tarixi bilan bogʻliq holda paydo boʻladi va keyingi “taqdiri” ham shu jarayon bilan bogʻliq. Hech bir til mustaqil ravishda rivojlanmasligi, lugʻat qatlamining oʻzga tillar bilan aloqada boʻlmagan holda boyish imkoniyati juda pastligi barchamizga ayon. Ushbu qonuniyat, ayni damda, xalqning dunyodan ajralgan holda, boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, madaniy-maʼrifiy va boshqa sohalarda aloqalarni oʻrnatmagan holda rivojlana olmasligidan kelib chiqadi. Bu aloqalar natijasi esa, albatta, tilning lugʻat qatlamida, jumladan maʼrifiy-falsafiy leksika doirasida ham kuzatiladi. Demak, muayyan asar, xususan, mumtoz matnlardagi maʼrifiy-falsafiy leksikani tahlil qilish tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Dunyo tilshunosligida tilning tarixiy qatlamidagi maʼrifiy-falsafiy leksika tilshunoslar tomonidan, asosan, mumtoz manbalarga tayanilgan holda oʻrganilgan. Chunki qadimiy noyob manbalar: toshbitik va qoʻlyozmalar tilning shu davrdagi soʻzligini oʻzida aks ettiruvchi muhim ilmiy hujjatlardir. Bu borada, ayniqsa, badiiy va ilmiy manbalar, solnomalar, tarixiy asarlar dunyo tilshunoslari tadqiqotlari uchun asosiy obyekt vazifasini oʻtagan. Qolaversa, qadimiy noyob manbalar maʼlum xalqning oʻziga xos madaniyatini aks ettiruvchi koʻzgudir. Keltirilgan omillar sababli dunyo turkolog olimlari qadimgi yoki eski turkiy til yoxud eski oʻzbek adabiy tili davriga oid lingvistik tadqiqotlarini shu davrda yaratilgan asarlarning qoʻlyozma nusxalariga tayangan holda olib bormoqdalar. Shuningdek, til hodisalarini tarixiy jihatdan oʻrganish, birlamchi manbalarga asoslanish, til taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma yodgorliklar tilini qiyoslash asosida ular orasidagi umumiy va farqli xususiyatlarni aniqlash dunyo tilshunosligidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu holat eski oʻzbek adabiy tilining soʻnggi davriga oid lingvistik tadqiqotlarni olib borishda oʻzbek tilining shu davrga mansub barcha lugʻaviy birliklarini oʻzida jamlagan Ogahiy tarixiy asarlarining lugʻat qatlami mavzu guruhlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etishini belgilab beradi.

Oʻzbek tilshunosligida qadimiy noyob manbalarining lugʻaviy qatlamini tahlil va tadqiq qilish, Ogahiy tarixiy asarlari leksikasini oʻrganish, undagi soʻzlarning mavzu guruhlariga taqsimi nisbatining sabab va omillarini asoslash, muallif xos uslubini aniqlash orqali muarrix asarlari qoʻlyozma nusxalarini joriy alifboga oʻgirish gʻoyat muhim ahamiyatga ega. Bu esa Ogahiy tarixiy asarlari leksikasini tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Binobarin, “milliy oʻzligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini oʻrganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama

qo‘llab-quvvatlash”¹ zarur. Ayni damda yurtimizda “...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilayotgani”² bu boradagi ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirishga asos bo‘lmoqda. Ogahiy tarixiy asarlarining noyob qo‘lyozma nusxalari tilini o‘rganish, ulardagi ma‘rifiy-falsafiy leksikaning mavzu ko‘lamini belgilash, ularning tarixiy asar badiiyatida tutgan o‘rnini aniqlash, lug‘aviy birliklar tarixiy ildizlarini oydinlashtirish hozirgacha monografik planda maxsus o‘rganilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish haqida”gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 28-iyuldagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va ushbu faoliyat bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida tarixiy leksika mavzusiga oid adabiyotlar ko‘lami nihoyatda keng. Ogahiy asarlari haqida o‘z vaqtida rus olimlaridan A.D.Kalmikov “Firdavs ul-iqbol”dan tarjimalar chop etgan. B.V.Lunin Xorazm tarixi va manbashunosligi haqida ayrim qaydlarni keltirilgan³. A.L.Kunn esa Xorazm qo‘lyozmalari haqida dastlabki ma‘lumotni bergan⁴.

O‘zbek tilida tarixiy ma‘rifiy-falsafiy leksikasi masalasi tilshunosligimizda qator ishlarda monografik hamda boshqa mavzularga bog‘liq tarzda o‘rganilgan. A.Rustamov tomonidan yoqlangan doktorlik dissertatsiyasi⁵ hamda olimning

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги “Тараккиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

³Бартольд В.В. Сочинения. IX том. Москва: 1977. С. 444; Лунин Б.В. Прошлое и настоящее Хорезма в науке// История Хорезма. Ташкент, 1976. С. 6-8; Дмитрева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание Тюркских рукописей института народов Азии. Москва: 1965; Дмитрева Л.В. Каталог тюркских рукописей. – Москва: 2002.

⁴Кунн А. Заметки о Хивинском ханстве // Туркистанские ведомости, 1873. № 40. – С.158.

⁵Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Авт. дисс. ... докт. филол.н. – Ташкент: 1966; Бафоев Р. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, статистические и

Gʻ.Abdurahmonov bilan hammualliflikdagi ishida⁶ ayrim lugʻaviy birliklar semantik tabiati, tuzilishi, maʼno taraqqiyotidagi siljishlar haqida qimmatli faktlar oʻrin olgan. Oʻzbek olimlari tomonidan yaratilgan qator darslik va oʻquv qoʻllanmalari, monografiyalarda ham tilimizdagi tarixiy maʼrifiy-falsafiy leksika haqida muhim ilmiy maʼlumotlar oʻrin olgan⁷. Eski oʻzbek tilida maʼrifiy-falsafiy leksika, asosan, Alisher Navoiy asarlari tili tadqiqi asnosida oʻrganilgan. Bu borada B.Bafoev⁸, A.Nishonov⁹, Z.Hamidov¹⁰, A.Karimov¹¹, I.Nosirov¹², M.Tojiboyevalarning¹³ ishlari diqqatga molikdir. Tilshunosligimizda leksika doirasida bajarilgan juda katta koʻlamli ishlarning aksarida oʻzlashma soʻzlar masalasiga alohida bandlar ajratilgan. G.Kazakbayeva oʻzbek tilidagi arabizmlarni amaliy va nazariy aspektda tadqiq qilgan¹⁴ ishida maʼrifiy-falsafiy leksikaga oid qaydlar mavjud. Ogahiy asarlari leksikasiga oid dastlabki tadqiqotlardan biri S.Dolimovga tegishlidir¹⁵. Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi umumiy planda A.Oʻrazboyev tomonidan oʻrganilgan¹⁶. Eski turkiy til va eski oʻzbek tili leksikonidagi maʼrifiy-falsafiy soha birliklari V.I.Abayev¹⁷, Sh.Rahmatullayev¹⁸, H.Dadaboyev¹⁹, B.Abdushukurov²⁰, N.Mahmudov²¹, Z.Doʻsimov²², R.Yoʻldoshev²³, M.Tillayeva²⁴, A.Primov²⁵ va boshqalar tomonidan olib borilgan.

тематические исследования). Авт. дисс. ... докт. филол.н. – Ташкент: 1989; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: 1983; Эшонкулов Б.Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилида арабий лугавий ўзлашмаларнинг парадигмик ассимиляция муносабати. Филол. фан. док. дис... автореф. – Тошкент, 1996. –Б. 21.

⁶Абдурахмонов Ғ. Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984.

⁷Бегматов Э. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981; Бегматов Э.А. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик катламлари. – Тошкент: Фан, 1985; Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараккиёт босқичлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999; Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холманова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 156.; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: ЎМЭ, 2017. –Б. 384.; Миртожиев М. Ўзбек лексикологияси ва лексикографияси. –Тошкент, 2000; Ҳамидов З. Луғатшунослик тарихи ва кўлзма луғатлар. – Тошкент: Адолат, 2004. –Б. 36.

⁸Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои: Дис...докт.филол.наук. – Тошкент, 1989.

⁹Нишонов А.Х. Фонетико-морфологический и лексико-семантический анализ арабизмов в языке Навои: Автореферат дис. ... к-та филол. наук – Ташкент, 1990. –С. 19.

¹⁰Ҳамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр» Алишера Навои: Дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1982.

¹¹Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы «Фарҳад и Ширин»: Дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1973. Каримов А. Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонининг луғати. Биринчи қисм. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2004. –Б. 208.; Иккинчи қисм. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2004. –Б. 184.

¹²Насыров И. Лексика «Маҷалис ун-нафаис» А.Навои. Авт. дисс. ... канд. филол.н. – Тошкент: 1980;

¹³Тожибоева М. Алишер Навоийнинг “Илк девон”идаги арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини. Филол. фан.ном....дисс.-Т.,2011.

¹⁴Казакбаева Г.А. Арабизмы в узбекском языке в прикладном и теоретическом аспектах. Автореф. ...канд. филол. наук – М.: 2012. –С. 26.

¹⁵Долимов С. Огаҳий поэзиясида омоним ва синоним сўзлар // Ўқитувчилар газетаси. 1957. – № 51.

¹⁶Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013., Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарларида форсий -мон компоненти // Илм сарчашмалари. Урганч. 2014. №5. – Б. 5-7., Ўразбоев А. Огаҳий тарихий асарлари лексикаси. Филол. фан. док. (DSc) дис. – Тошкент, 2018. 248 б.

¹⁷Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Том II. – Ленинград: Наука, 1973.

¹⁸Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати.–Тошкент: Университет, 2000. –Б. 600.

¹⁹Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. –С. 185 (1)., Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. –С. 21.

²⁰Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣ” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 192.

²¹Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 320.

Qardosh turkiy xalqlar tilshunosligida ma'rifiy-falsafiy leksikaning katta qismi o'zlashmalar, xususan, arabcha va forsha olinma so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan ko'lamli ishlar, jumladan, qozoq²⁶, turkman²⁷, boshqird²⁸, ozarbayjon, tatar²⁹ tilshunosliklari tadqiqotlarida mavjud. Buni ayrim leksikografik manbalarda ham ko'ramiz³⁰.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusidagi loyiha asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksika mavzuiy-semantik guruhlarini aniqlash, ularning qo'llanish sabab va omillarini tahlil qilish, genealogik tadqiqini amalga oshirish hamda lingvopoetik xususiyatlarini o'rganishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari:

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaning mavzuiy-semantik guruhlarini belgilash;

mumtoz matnda ma'rifiy-falsafiy leksika tushunchasi va uning ogahiy tarixiy asarlarida qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniqlash, bunda, xususan, xalq ma'rifiy dunyoqarashi bilan bog'liq ma'rifiy-falsafiy leksika, tasavvufiy-ma'rifiy istilohlar, fiqhiy va ilmiy istilohlar e'tibor qaratish;

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy istilohlar tarixiy-etimologik tahlilini turkiy tillarga mansub, eroniy tillarga oid, arab tiliga oid ma'rifiy-falsafiy leksika tarzida aniqlash;

Ogahiy tarixiy asarlarida ma'rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi shakldosh ma'rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasini shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli ma'rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi tarzida tahlil qilish.

²² Дўсимов З. Огаҳий асарларида хоразмий тили элементлари // Огаҳий олами. – Урганч, 2004. –Б. 25-28.

²³ Йўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида соннинг қўлланилиши // Илм сарчашмалари. – 2004. №4. –Б. 92-96; Огаҳий поэзиясида омонимлар // Мунаввар умр. – Урганч, 2005, –Б. 84-85; Огаҳий поэзиясида антонимлар // Илм сарчашмалари. 2005. №1.–Б. 52-55; Огаҳий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар // Илм сарчашмалари. – №4. 2004; Огаҳий поэзиясида "ов" мазмун майдони // Илм сарчашмалари. 2005. №4. –Б. 78-8.

²⁴ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. («Авесто» ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006.

²⁵ Primov A. "Zafarnoma" va Ogahiy tarixiy asarlari tilidagi ba'zi so'zlarning qiyosiy tahlili // Огаҳий ҳаёти ва ижоди – ёшлар учун намуна, – Тошкент, 2020.

²⁶ Рустемов Л.З. Арабско-иранские заимствования в казахском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1982. – С. 169.

²⁷ Джафаров Дж. Персидские слова в современном туркменском языке: Автореф. ...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1971. – С. 28.

²⁸ Бахтиярова А.Н. Арабские заимствования в башкирском языке. Автореф. ...канд. филол. наук. – Уфа, 2009. –Б. 26.

²⁹ Юсупова А.Ш. Арабо-персидские заимствования в двуязычных словарях татарского языка XIX века: к проблеме языковых контактов. Ученые записки казанского государственного университета. Том 149, кн. 4. Гуманитарные науки 2007. –С. 55 – 63.

³⁰ Зәйнуллин Ж.Г. Шәрәк алынмалары сүзлегә. – Казан: Мәгариф, 1994. –Б. 144.; Федорова Э.Н. Татар халык мәкальләрендә гарәп-фарсы алынмалары. – Казан, 2004. – Б. 249.; Klassik Azərbaycan dilində işləyən ərəb və fars sözləri lüğəti. İki cildə. I cild. – Bakı: Şərq-Qərb, 2005. – S. 416.; Klassik Azərbaycan dilində işləyən ərəb və fars sözləri lüğəti. İki cildə. II cild. – Bakı: Şərq-Qərb, 2005. – S. 472.

Tadqiqot obyekti sifatida Ogahiy asarlari leksikasi aks etgan qo'lyozma manbalar, muarrix asarlarining mavjud ilmiy-tanqidiy nashrlari olingan³¹.

Tadqiqot predmetini Ogahiy tarixiy asarlari ma'rifiy-falsafiy leksikaning o'ziga xos xususiyatlari, mavzu ko'lami, etimologiyasi, lingvopoetikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va tadqiq usullari. Tadqiqot doirasidagi tahlillarda yetakchi o'zbek tilshunoslari G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.Hojiyev, N.Mahmudov, Z.Do'simov, A.O'razboyev, A.Primov hamda xorijlik taniqli sharqshunoslarning tarixiy leksika borasidagi muhim nazariy kontseptsiyalariga tayanildi.

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy hamda etimologik tahlil, tasniflash, sinxron va diaxron tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaning mavzuiy-semantik guruhlari belgilangan mumtoz matnda ma'rifiy-falsafiy leksika tushunchasi va uning Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniqlanib, bunda xalq ma'rifiy dunyoqarashi bilan bog'liq ma'rifiy-falsafiy leksika, tasavvufiy-ma'rifiy istilohlar, fiqhiy va ilmiy istilohlarga ajratilgan;

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy istilohlar tarixiy-etimologik tahlili turkiy tillarga mansub, eroniy va arab tillariga oid ma'rifiy-falsafiy leksikaga bo'linishi o'z isbotini topgan;

Ogahiy tarixiy asarlarida ma'rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi shakldosh ma'rifiy-falsafiy leksika, ma'nodosh, zid ma'noli ma'rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi tarzida tahlil qilish asosli ekani isbotlangan;

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksika o'z ko'lamining kengligi sababli eski o'zbek tilidagi shu guruhga mansub asosiy birliklarni qamrab olgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaning mavzuiy guruhlari, ularning lingvopoetikasi, genetik va tarkibiy tahlili o'zbek tilshunosligi, xususan, til tarixi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, o'zbek tili tarixi, dialektologiya, leksikologiya, hozirgi o'zbek adabiy tili, lingvopoetika, etnolingvistika kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Ogahiy tarixiy asarlari lug'at qatlamidagi ma'rifiy-falsafiy leksika birliklarining tarkibiy tahlili amalga oshirilgan hamda ularning tasnif omillari yoritilgan;

³¹ Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm // Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. – Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988. (Ishda FI qisqartmasi bilan berildi); رياض الدولة O'zR FA Sharqshunoslik instituti. رياض الدولة 5364/II. 246^a-364^a varaqlar (RD qisqartmasi bilan berildi); نبدۋ التوارىخ O'zR FA Sharqshunoslik instituti. 821/III. 386^a-435^a varaqlar (ZT qisqartmasi bilan berildi); گلشن دولت O'z RFA Sharqshunoslik instituti, №7572 (GD qisqartmasi bilan berildi); شاهد الاقبال Sankt-Peterburgda saqlanayotgan qo'lyozmaning fotonusxasi // O'zR FA Sharqshunoslik instituti 70/1 (ShI qisqartmasi bilan berildi)

tadqiqot etnogenetik muammolarni yoritishda, eski o'zbek tili leksikasi shakllanish va rivojlanish jarayonini o'rganishda eng ishonchli manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi dalillangan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o'zbek tilining etimologik lug'atini mukammallashtirishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlilga tortilgan materiallar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosiligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, izlanishda Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaning o'ziga xosliklari, qo'llanish sabablari, mavzu ko'lam, lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, bu jarayon tilshunoslikning eng so'nggi yutuqlari asosida o'rganilgan, lug'aviy birliklarda sodir bo'ladigan hodisalar va ularni yuzaga keltiruvchi omillar haqidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'zbek tili leksikasining shakllanish jarayoni, unda ma'rifiy-falsafiy leksikaning o'rni, lisoniy tabiati hamda o'ziga xosliklari haqidagi qarashlar leksikologiya, til tarixi, dialektologiya, etnolingvistika, lingvopoetika kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi, shuningdek, dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar o'zbek tili etimologik lug'ati, o'zbek mumtoz adiblari asarlari elektron lug'ati, Ogahiy asarlari (elektron) lug'atini yaratishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikani o'rganish asosida:

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaning mavzuviy-semantik guruhlarini belgilash Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan "Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarining ma'lumotlar bazasini va "Yevroturcologica.uz" elektron platformasini yaratish" loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2022-yil 26-avgustdagi № IZ-2020102832-2022/8 son ma'lumotnomasi). Natijada qadimiy qo'lyozmalar haqidagi tavsiflar mazmuni yanada boyigan, kitobxonlarga raqamli kutubxonadan foydalanishda qulaylik yaratilgan;

mumtoz matnda ma'rifiy-falsafiy leksika tushunchasi va uning Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llanishining o'ziga xosliklarini aniqlanib, bunda xalq ma'rifiy dunyoqarashi bilan bog'liq ma'rifiy-falsafiy leksika, tasavvufiy-ma'rifiy istilohlar, fiqhiy va ilmiy istilohlar ajratilishi haqidagi xulosalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 238-son qarorining 3^b-bandi ijrosi sifatida 2019-yilda

nashr qilingan Ogahiy asarlar to'plamining 2- va 3-jildlarini tayyorlashda foydalanilgan.(O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 20-maydagi №01-03/693-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur jildlardan o'rin olgan tarixiy asarlarning oldingi nashrlarida kuzatilgan xatoliklar bartaraf etilgan, ayrim so'zlar ma'no va izohlariga oydinlik kiritilib, nashr sifati oshishiga erishilgan;

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy istilohlar tarixiy-etimologik tahlili turkiy tillarga mansub, eroniy tillarga oid, arab tiliga oid ma'rifiy-falsafiy leksikaga bo'linishi haqidagi xulosalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi "Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to'g'risida"gi 238-son qarorining 3^b-bandiga ijrosi sifatida 2020-yilda nashr qilingan Ogahiy asarlar to'plamining 6- va 9-jildlarini nashr qilishda foydalanilgan. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 20-maydagi №01-03/694-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur jildlardan o'rin olgan "Gulshani davlat" tarixiy asari, "Guliston" (Sa'diyning shu nomli asari tarjimasini), "Haft paykar" (Nizomiyning shu nomli asari nasriy tarjimasini) asarlari nashr saviyasi ortib, "Gulshani davlat"ning birinchi marta to'liq tabdil qilinishi hamda qayd etilgan ikkita tarjima asarning ilgarigi nashrlari kamchiliklari tuzatilishiga erishilgan;

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida davlat ilmiy texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2023-2024 yillarga mo'ljallangan "Qiyosiy adabiyotshunoslik" fanining "Komparativtikasi" elektron platformasini yaratish mavzusidagi loyiha doirasida bir qancha elektron materiallar, kontentlar va OAVlariga maqolalar tayyorlandi. Ushbu jarayonda loyiha a'zosi bajaruvchisi sifatida ishtirok etildi.(30 sentyabr 2023 yil, IRD/123 229)

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika 3 ta xalqaro konferensiyada ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta; xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida (3 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanlarida), respublika oliy ta'lim muassasalari ilmiy-nazariy to'plamlarida dissertatsiya natijalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Ishning I bobi **“Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma’rifiy-falsafiy leksikaning mavzuiy-semantik guruhlari”** deb nomlanib, unda birinchi band **“Mumtoz matnda ma’rifiy-falsafiy leksika tushunchasi va uning Ogahiy tarixiy asarlarida qo‘llanishining o‘ziga xosliklari”** tarzida belgilangan. Mumtoz matnlar mutolaasi asnosida ularni anglash, idrok etish darajasi aksar hollarda ishlatilgan so‘zlarni shu urimimizda qay yo‘sinda aks etishiga bog‘liq. O‘zbek mumtoz asarlarida milliy merosimizning o‘ziga xosliklari bois ma’rifiy-falsafiy leksika (keyingi o‘rinlarda MFL) alohida tizim sifatida shakllangan. MFL boshqa mavzuiy-semantik guruhlardan qaysi jihatlariga ko‘ra farqlanadi, uni alohida tizim sifatida shakllantiruvchi belgilar nimalardan iboratligi va uning lingvistika uchun ahamiyatli tomoni qaysilar ekani muhim, albatta.

Tilda mavjud lug‘aviy birliklarning ma’rifiy va falsafiy ma’no kasb etishi natijasida MFL yuzaga keladi. Masalan, *hayot* so‘zini biologiya atamasi sifatida anglash ustiga undan “idrok va tafakkur orqali o‘zlikni anglashga intilish uchun imkon”; “insonning abadiy saodati yoki aksi uchun sarf qilinuvchi vaqt ibtidosi va intihosi” kabi ma’rifiy hamda falsafiy ma’nolar uqish natijasida unda MFLga mansublik yuzaga keladi. Xuddi shu kabi *savob* ثواب so‘zi diniy istiloh sifatida “xudoning marhamatiga loyiq ish va shunday ish uchun xudoning marhamati” ma’nosini bersa, ma’rifiy-falsafiy jihatdan “O‘zgalarga beminnat qilingan xolis yordam; yaxshi, ezgu ish”³² ma’nosini beradi. Aslida solnoma sanalsa ham mutaxassislar tomonidan tarixiy-badiiy asar, badiiy-tarixiy nasr³³ deb atalgan Ogahiy tarixiy asarlarida MFL ko‘lami ancha keng. Shularni e’tiborga olgan holda Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, maishiy, ilmiy kabi turli mavzuiy guruhga mansub so‘zlar MFL tarkibini shakllantirishi muarrixning ma’rifiy va falsafiy mushohada olami kengligi bois yuzaga kelgan.

Misol tariqasida, falakiyot termini bo‘lgan *jahon* MFLga mansub so‘z sifatda “inson idrok etgan ongli hayot” ma’nosini kasb etadi. Boshqacha aytganda, *jahon* falakiyot istilohi sifatida moddiy; MFL birligi sifatida unga qo‘shimcha o‘laroq ma’naviy ko‘lamda anglanadi.

Ogahiy o‘z tarixiy asarlaridagi MFLga mansub birliklar istifodasi orqali quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratgan:

³² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 415.

³³ Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-икбол. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – Б. 24.

1. Asar(lar)da bayon qilingan voqealar aniqligi, real voqealar tasvirini berish.

2. Real voqealarni adabiy shaklda, badiiy vositalarga boy ko'rkam shaklini yaratish.

3. Shakliiy va mazmuniy mutobiqlikni o'z ijtimoiy-siyosiy qarashlari (aslida uning asosini xonlar shaxsiyati bilan hisoblashish, ularning ra'ylariga moslashishni tashkil qiladi)ni aks ettirishga yo'naltirish.

Ogahiy tarixiy asarlarida shunday birliklar borki, ularni MFLga oid birlik sifatida tushunmasak va talqin qilmasak, muarrixning maqsadi, ijtimoiy-ruhiy holati, matn osti sirlari kabi jihatlarni anglash va anglatish imkoni topilmaydi. Masalan, fiqhiy tomondan olib qaraganda, *din* – bu din, *mazhab* – bu mazhab. Lekin Ogahiy misol tariqasida keluvchi “o'z *dinig'a* muvofiq ko'p nazrlar o'tkardi” (RD, 326^b) matnda shia mazhabini *din* deb ifodalashi, aniqrog'i, talqin qilishini Ogahiy tarixiy asarlarida MFLga oid birliklarning o'ziga xosligidan biri sanaladi. Ana shu orqali *mazhab* o'rnida *din* ishlatilishiga bois muhit, muarrixning ijtimoiy-siyosiy qarashlari asosi, ruhiy holati kabi omillarni anglash imkoni tug'iladi. Buning tilshunoslik uchun muhim tomoni so'zlarda ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ma'no ko'chishi kabi lisoniy hodisalarni idrok etish osonlashadi. Shuning uchun boshqa bir o'rinda *din* so'zi sunniy mazhabi ma'nosini anglatib kelishi *istiloh* va *leksika* tushunchalarining o'zi farqlanishi yaqqol ko'rsatib beradi: “*din* sharbati labin chuchutub, shia mazhabin tark tutub erdi”. (262^a)

Demak, o'zbek mumtoz matnlarida MFL muallifining idroki olami va tafakkuri bilan bog'liq ravishda turli tip lug'aviy birliklarga ma'rifiy va falsafiy ma'no yuklash natijasida yuzaga keluvchi murakkab va ko'pqatlamli birliklar majmuidir.

Bobning ikkinchi bandi “**Ogahiy tarixiy asarlarida xalq ma'rifiy dunyoqarashi bilan bog'liq ma'rifiy-falsafiy leksika**” deb nomlangan, Har qanday mutafakkir dunyoqarashi o'z xalqining tafakkur chashmalaridan suv ichib shakllanadi va rivojlanadi. Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlarida ham ana shu holatning yaqqol ifodasini ko'ramiz. Uning tarixiy asarlarida asrlar davomida o'zbek xalqi ma'rifiy-falsafiy dunyoqarashida mustahkam o'rnashib qolgan tushunchalarni ifoda etuvchi MFilar alohida bir tizimni tashkil qiladi. Bular ichida birinchi navbatda *yaxshilik* va *yomonlik* tushunchalarini anglatuvchi istilohlarni qayd etish o'rinlidir. Chunki yaxshilik va yomonlik tushunchalari inson shuurida, eng avvalo, asrlar davomida yashab kelayotgan an'analar asosida shakllanadi.

Ogahiy tarixiy asarlarida *yaxshilik* va *yomonlik* tushunchalari quyida istilohlar orqali aks etgan:

Yaxshilig' // yaxshiliq – yomonlig' // yomonliq:

Nakim *yaxshilig'dur*, shuru' ayladi,

Na ersa *yamonlig'*, ruju' ayladi. (RD, 254^b)

Demak, muarrix nigohida *mardlik* va *yaxshilik* hamda *nomardlik*, *basolat*, *balotdastgoh*, *basolatiktinoh*, *basolatiktisob*, *basolatosor*, *jalodat*,

shijoat, futuvvat, javonmardlik, muruvvat, rajuliyat, hamiyat, muruvvat kabi MFLga mansub birliklar tahlil qilingan. Ogahiy tarixiy asarlaridagi qator MFLga mansub birliklarning shakllanishi xalqimiz teran tafakkur tarzi, o'ziga xos dunyoqarashi bilan bog'lanadi. Xususan, yaxshilik va yomonlik; mardlik va nomardlik; saxiylik va baxillik kabi dualistik qarashlarning asosi va ibtidosini xalq ma'rifiy-falsafiy dunyoqarashi bilan bog'lash o'rinlidir.

Uchinchi band **“Tasavvufiy-ma'rifiy istilohlar”** deb ataladi. Unda Ogahiy tarixiy asarlarida *may, mayxona, boda, sharob, sharobxona, xamr, xammor* kabi so'zlar tasavvufiy istiloh emas, aksar hollarda ko'chma ma'nosi bilan birga bosh lug'aviy ma'nolari, ya'ni umumiste'moldagi mazmunlarida ishlatilgani qayd etiladi. Buning sababi solnomalar birinchi navbatda real voqealarga asoslangan asarlar ekanligi bilan izohlanadi. *Sharob, boda, may* kabi so'zlarning umumiste'moldagi ma'nolaridan xos ma'nolari vujudga kelish yo'llari va tamoyillari xususida A.Vohidov e'tiborli fikrlar bayon qilgan³⁴.

Ishq so'zining tasavvuf istilohida o'ziga xos ma'no anglatishi ma'lum. Alisher Navoiyning *ishq* martabalari xususida bildirgan mulohazalari mashhur. Ushbu so'zning tarixiy-etimologik tahliliga nazar solsak, uning arabcha عشق *a'shiqa* – “sevmok”, “oshiq bo'lmoq” fe'lining masdari (infinitivi) shakli sifatida shakllanganini ko'ramiz³⁵. Tarixan esa *ishq* so'zining o'zi mazkur ma'noga polisemiya natijasida o'tgan bo'lib, o'simliklarga chirmashib uni quritadigan giyoh nomi denotant vazifasini bajargan. Bu haqda Muhammad Rampuriyning “G'iyosu-l-lug'ot” asarida quyidagilarni o'qiymiz: “*Ishq* biror narsani haddan ziyod sevmok; Tabiblar istilohida biror go'zal narsani ko'rib qolish natijasida paydo bo'ladigan kasallik. Ogahiyning *ishq* tushunchasi haqidagi tasavvur doirasi keng ekanini uning mazkur so'z (*chulashib*)dan foydalanish mahoratida ko'ramiz. Bandda, shuningdek, *darvesh, vali* (ko'pligi *avliyo*), *qutb, g'avsul-a'zam, axyor, avtod, abdol* (*budalo*), *naqib* (*nuqabo*), *rijol-l-g'ayb, valoyat, suluk, mushobahat, tariqat, murid, mujovir, so'fi, abdol, sharobi azal, sharobi alast, sharobi puxta, sharobi xom, sharobi ma'rifat, xarobot, soqiy, sog'ar, qadah, jom, javonmard* (yana bir sinonimi *fato*) MFLga mansub birliklar tahlil qilingan. Ogahiy tarixiy asarlarida tasavvuf bilan bog'liq MFLning ishlatilishi asosan quyidagi omillar bilan bog'liq ekaniga e'tibor berish lozim: 1. Solnomalarda ko'plab din va tasavvuf arboblarning zikr etilishi. 2. O'quvchi zehnda yaxshi qolishi va boshqa maqsadlarda zikri kelgan tarixiy shaxslarga tasavvuf istilohlaridan foydalangan holda tavsif berish. 3. Tasavvuf istilohlarining zamondoshlar tomonidan yaxshi anglab yetilishiga va buning samaradorligiga ishonch hosil qilish.

To'rtinchi band **“Ma'rifiy-falsafiy leksika tarkibida fiqhiy istilohlarning ishlatilishi”** tarzida nomlangan. Ogahiy tarixiy asarlari

³⁴ Вохидов А. Умумистеъмолдаги сўзларнинг тасаввув терминларига айланиш жараёни// Эроний тилларнинг лексикологияси. – Тошкент: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2010. – Б. 15-22.

³⁵ Носиров О., Юсупов М. Ан-наъим. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 541.

leksikasining muayyan bir qismini fiqhiy-ma'rifiy leksika tashkil qiladi. Fiqhiy atamalarni ajratish, ularning mavzu guruhlarini belgilashda biz Qosim ibn Abdulloh ibn Mavlono Xayruddin Amir Ali Quvnaviy Rumiy Hanafiyning "Anisul fuqaho fiy ta'rifotil alfoz al-mutadavala baynal fuqaho" asariga asoslandik³⁶. Ogahiy tarixiy asarlarida fiqhiy-ma'rifiy leksikaga mansub so'zlar matn mazmuniga ko'ra ba'zan sof fiqhiy (istilohiy), fiqhiy-ma'rifiy, urfiy, urfiy-istilohiy ma'nolarda ishlatilgan. Qardosh xalqlar tilshunosligida biz o'rganayotgan mavzuga yaqin qator ishlar amalga oshirilgan. Masalan, A.M.Minnegaliyeva "Tatar diniy-didaktik adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi risolasi "Muxtasar al-Quduri" materiali asosida" nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ishda tatar diniy adabiyoti tili semantik-stilistik aspektida o'rganilgan. Muallifning o'zi ta'kidlaganidek, xalq tarixi yashiringan, hayotning ma'naviy jihati uchun xizmat qiladigan diniy-didaktik uslubning inson o'z-o'zini anglashidek eng sirli va muhim jihatlarini ochib berishga harakat qilingan³⁷. Eski o'zbek tilida diniy, shuningdek, tasavvufiy terminlarning katta ko'pchiligi arab tilidan o'zlashganligi tabiiy, albatta. Shunday bo'lishiga qaramay, eski o'zbek tilidagi ham, hozirgi adabiy tilimiz va shevalarimizdagi diniy terminlarning genetik mansubligi arab tili bilan chegaralanmaydi. O'zbek tili diniy terminlar tizimida o'zbek (turkiy) va fors tillariga mansub so'zlar ham, o'z qatlamga mansub so'zlar ham ancha. Misol tariqasida Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llanilgan fors tilidan o'zlashgan diniy terminlar o'z navbatida kichik mavzu guruhlariga bo'linadi. Bularni a) mutlaq iloh tushunchasini ifodalovchi so'zlar; b) payg'ambar tushunchasini ifodalovchi so'zlar; d) farishta tushunchasini ifodalovchi so'zlar; e) jannat va do'zax tushunchasini ifodalovchi so'zlar; f) ibodatga aloqador tushunchalarni ifodalovchi so'zlar; g) turli mazmundagi diniy terminlar kabi guruhlarga ajratish mumkin³⁸.

Mutaxassislar fikricha, qadimgi turkiy tilda ulug' iloh oti bo'lgan *Tangri* // *tengiri* so'zining qadim xitoy tilida diniy termin bo'lgan *tyan* (osmon) kalimasi bilan semantik aloqadorligi bor. Lekin *tangri* // *tengiri* so'zining qurilishi uning turkiy manbaga ega so'z ekanini tasdiqlaydi. Bu so'z bilan bog'liq maqollar, frazeologik birliklar va boshqa unsurlar, asosan, turkiy tillarning deyarli barchasida hamda ularning dialektlarida uchraydi. I.Jafarso'ylu "xunlar va ko'k turklarning bosh tangrisi *Tengri* deb nomlangan. Shumerlarning bosh tangrisi esa *Tengir*dir. Xett va Urartu mixxatlarida iloh nomi *Dingir* deyilgan va bu tasodifan emas"³⁹ – deb yozadi. Adabiyotlarda bu so'zning *osmon*, *xudo* ma'nolarini anglatgani va turkiy tilda VIII asrdan qo'llangani qayd etilib⁴⁰, zamonaviy turkiy tillarda keng

³⁶ Фикхий атамаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: "Azon kitoblari" нашриёти, 2020. 284 б.

³⁷ Амонтурдиева Ш. Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили: Филол.фан. бўйича фалс. докт.. (PhD) дисс... автореф. Самарқанд, 2020. – Б. 16.

³⁸ Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018. – Б. 84.

³⁹ Сəfərsəyly İ.Y. Türk, Urartu, Alban etnolinqvistik uyğunluqları. Bakı, 2008, 327 s.

⁴⁰ Древнетюркский словарь / Под. ред. Наделяева В.М., Насилова Д.М., Тенишева Э.Р., Щербака А.М. Л., 1969. – С. 544; Clauson G. An etimological dictionary of pre-thirteenth-century Turkish. Oxford, 1972. – P. 523.

tarqalgan⁴¹. Ushbu soʻz bilan katta koʻlamdagi ilmiy qarashlar R.Mahmudov tomonidan tahlil qilingan⁴².

Bobning oxirgi bandi **“Maʼrifiy-falsafiy leksika tarkibida ilmiy istilohlarning ishlatilishi”** deb nomlangan. Ogahiy tarixiy asarlarida ilmiy istilohlarning MFL sifatida voqealar bayoniga bogʻliq holda koʻp miqdorda ishlatilishi taʼlim va tahsil jarayoni aks etgan kam sonli lavhalarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Shu munosabat bilan *ulamo, kitob mutolaasi, balogʻat, fasohat, fuzalo, guftugoʻ, mukolamasi, balogʻat, ilmi maoniy, ilmi bayon, ilmi badiʻ, fasih, baligʻ, iʼjoz //eʼjoz, daqiq iboratlar, maʼni shohidlari, qaviy fikrlar, nukta, badeʼ mazmun, majlis ahli, munozara, mukolama, javob-u savol, bahs-u jidol, radd-u badal, musohaba* kabi soʻzlar tahlil qilingan.

Ishning II bobi **“Ogahiy tarixiy asarlaridagi maʼrifiy-falsafiy istilohlar tarixiy-etimologik tahlili”** deb nomlanadi va uch banddan iborat. Bobning birinchi bandi **“Turkiy tillarga mansub maʼrifiy-falsafiy leksika”** deb nomlangan. Albatta, ishimizda Ogahiy tarixiy asarlarida mavjud turkiy qatlamga oid barcha soʻzlarni qamrab olish imkoni yoʻq. Shu bois oʻzbek tili tarixiy leksikasiga oid adabiyotlarda tahlil qilinmagan yoki umuman qayd etilmagan MFLga mansub birliklarni topishga harakat qildik. Bizningcha, FI va RD da bir martadan qoʻllangan *aldar-* – 1) chalgʻimoq, andarmon boʻlmoq; 2) oʻzini yoʻqotmoq feʼli biz koʻzda tutgan birliklardan sanaladi. Bu soʻz “Qadimgi turkiy til lugʻati”⁴³da ham qayd etilmagan. Istilohning qoʻllanishi va tarkibi uning *alda-feʼlining* nisbat shakli emas, mustaqil feʼl ekanini koʻrsatadi. Mazkur feʼlning RDda qoʻllangan holati: “ahli inodning aningdek hujum va gʻavgʻosidin *oldarmay*,.. darvozalarni tamarrud ahlining yuzigʻa madrus va masdud qildurdi” (RD, 282^a) FIning dastlabki bir nashrida *aldarrobi*⁴⁴ shaklida tushunarsiz oʻqilgan soʻz keyingi nashrda masʼul muharrir tomonidan Y.Bregel ilmiy-tanqidiy matni asosida *aldarab* shaklida tuzatilgan va “hozir shevalarda *alvirab*” tarzida eslatma kiritilgan⁴⁵: “Yavmut jamoasining maxsus bir dasturi budurkim, har qachon dushman gʻalabasidin *aldarab*, muztar boʻlsa, majmui bir boʻlub yasol va tugʻi bila hamla qilib, toʻqushur va agar zafar topmasa, botroq sirpilib, munhazim boʻlurlar”. (FI, 419-420) Demakki, soʻzning lugʻaviy maʼnosi uni MFLga mansub birlik sanashga toʻla imkon beradi. Uning etimologiyasi va maʼno taraqqiyotiga nazar solish ham xalq tafakkur tarzining, maʼrifiy olamining muayyan nuqtalariga eʼtibor bilan qarashga toʻgʻri keladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *-da* shakli bilan

⁴¹ Doerfer G. Türkische und Mongolische elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer Neupersischer geschichtsquellen, vor allem Mongolen und Timuridenzeit. Bd. II: Türkische elemente im Neupersischen Wiesbaden, 1965. – P. 578-580; Räsänen M. Versuch eines etymologischen Wörterbuchs der Türk Sprachen. Helsinki, 1969. – P. 474.

⁴² Махмудов Р. Ўзбек тилида авестизмлар. Филол.фан.фалс.докт.(PhD) диссертацияси. – Урганч: 2020. – Б. 74-756.

⁴³ Древнетюркский словарь / под ред. Д.М.Насилова, И.В. Кормушина и др.; сост. Т.А. Боровкова, Л.В. Дмитриева, А.А. Зырин, И.В. Кормушин и др. 2-е изд., пересмотр. – Астана: «Ғылым» баспасы, 2016. – 760 с.

⁴⁴ Мунис ва Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.– Б. 209.

⁴⁵ Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Асарлар. 2-жилд. 1-китоб. Шермухаммад Авазбий ўғли Мунис, Мухаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огахий. Фирдавсу-л-икбол (Бахт-саодат жаннати). – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2019, – Б. 425.

yasalgan fe'llardan biri "aldamoq"dir. Bu fe'lining asosi "hiyla-nayrang", "yolg'on", "avrash" ma'nolaridagi *āl* otidir⁴⁶. "Navoiy asarlari lug'ati"da *ol* (*āl*) shaklida to'rtta so'z berilgan bo'lib, *ol I* (huzur, old tomon; ro'para, qarshi; chekka, peshona)dan boshqasiga arabcha (a.) deb ta'kid qo'yilgan⁴⁷. Arab tiliga oid lug'atlarda mazkur lug'atda berilgan *ol IV* boshqasi berilmagan. Bu so'z arab tilida shaklida qarindoshlik; ittifoq shartnomasi; nafrat kabi ma'nolarda izohlangan⁴⁸. *Ol* so'zining "qizil"; "qizil tus" (*ol II*) ma'nosiga kelsak, uni arabcha hisoblashga hech qanday asos yo'q. To'g'ri, bu ma'no fors tilida ham bor⁴⁹. Lekin bu so'z fors tilidan turkiyga emas, aksincha turkiydan fors tiliga o'tgani ehtimolga yaqin. Birinchidan, forsiyda bu so'zning tarixiy asosi deb qaralgan "Avesto"dagi *aurusha* so'zi "oq" ma'nosini, sanskritcha *arusa* esa "qizil" ma'nosini beradi. Ikkinchidan, *āl* ko'p sonli eroniy tillardan faqat ikki tilda – tabariyda "ko'k" ma'nosida, mozandaroniyda "qizg'ish" ma'nosida uchraydi⁵⁰. Biz ko'rib chiqayotgan *aldira*-E.V.Sevortyan tomonidan G.Ramstedning *-da* affiksi bilan yasalgan so'zlar ro'yxatini keltirishi munosabati bilan qayd etiladi⁵¹. Shu tarzda Munis va Ogahiy asarlarida qo'llanilgan *aldar*- hamda *aldara*- shaklan va mazmunan bir qadar yaqin so'z sanaladi.

Ishda shu tariqa *Tengri*, *o'g'an*, *ko'ngul ota*, so'z (o'zlashma sinonimlari *kalima*, *kalom*, *nutq*, *nukta*, *nukot*, *lafz*, *alfoz*, *suxan*), *yozmog*, *yozg'ur*- *yazg'it* so'zlari tahlil qilingan. Ko'rinadiki, Ogahiy tarixiy asarlarida turkiy qatlam doirasida MFLga mansub har bir birlik xalqimizning ma'rifiy va falsafiy dunyoqarashi na qadar keng bo'lgani ko'rsata oladi.

Bobning ikkinchi bandi **"Eroniy tillarga oid ma'rifiy-falsafiy leksika"** deb nomlangan. Ogahiy tarixiy asarlarida MFLga turkiy (kam hollarda) va arabiy mansub bo'lgan eng faol birliklarning forsiy ifodalari ham mavjudligi e'tiborga loyiq. Masalan, *ma'rifat* – *donish*; *oqil* – *dono* kabi. Ularning ayrimlari xususida so'z yuritamiz. Solnomalarda tadqiq mavzusiga oid birliklar nihoyatda ko'pligi bois ularni ichki guruhlariga ajratish ehtiyoji bor. Masalan, *borliq va uning yaratilishi bilan bog'liq* MFLga mansub birliklar:

Ofarinish أفريش – yaratilish, vujudga kelish. Asosini yaratish, vujudga keltirish ma'nosidagi *ofarin* so'zi tashkil qiladi. *Ofarin* hozirgi o'zbek tilida "Mamnunlikni, zavqlanganlikni, qoyil qolganlikni ifodalovchi olqish so'zi; tahsin, tasanno" undov so'z vazifasida "Balli, barakalla"⁵² ma'nolarini ifodalaydi va forsha "yaratuvchi; maqtov, olqish; balli, tasanno" so'zi ekani qayd etilgan. Bu so'zning eski o'zbek tili manbalarida *ibdo* ابداع, *insho* انشا, *takvin* تكوين, *xalq* خلق, *xilqat* خلقت, *sirisht* سرشت, *sun'* صنع, *tabiat* طبيعت, *fitrat* فطرت, *kavn* كون, *nihod* نهاد,

⁴⁶ Древнетюркский словарь. – Л.: 1969. – С. 32.

⁴⁷ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 481.

⁴⁸ Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русский язык, 1985. – С. 39; Носиров О., Юсупов М. Ан-на'им. Арабча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Тошкент Ислон университети нашриёти, 2003. – Б. 27.

⁴⁹ Шамсуддин бин Халаф Табризий.Бурхони қотъ. Жилди 1. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш.– С. 114.

⁵⁰ Шамсуддин бин Халаф Табризий.Бурхони қотъ. Жилди 1. – Техрон: Амири кабир, 1375 х.ш. – С. 55.

⁵¹Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. Опыт сравнительного исследования. – Москва: Изд-во восточной литературы, 1962. – Б. 393.

⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати.3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.– Б. 158-159.

olam عالم, *maxluqot* مخلوقات, *hastiy* هستی, *borliq* بارلیق, *mashrab* مشرب, *xamira* خمیره, *zot* ذات, *mohiyat* ماهیت, *gavhar* گوهر, *g'ariza* غریزه, *manish* منش kabi soʻzlar bilan mutarodif (sinonim) sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga *borliq*, dunyo maʼnosidagi soʻzlardan biri *jahon* (inglizcha *universe*) boʻlib, uning maʼnosi oʻz qamroviga koʻra *ofarinishga* nisbatan torroqdir. Yaʼni, *jahon* asosan zamin doirasidagi qamrovni oʻz ichiga oladi. Shuning uchun ham bu soʻzga “Burhoni qote”da yer va (koʻzga koʻringan) osmon jismlaridan iborat *olam*, *zohiriy olam*” – deb izoh berilgan. Lekin ayrim oʻrinlarda *jahon* arabcha *olam* MFLga mansub birliklariga muvofiq maʼnolar anglatadi. Bu soʻz pahlaviychada *gehan*, avestoviyda *gaeta* koʻrinishida boʻlgan⁵³.

Xuddi shu tariqa badda *manish*, *donish*, *dono*, *binish*, *bino* // *bino*, *atdisha* // *andesha*, *binish*, *hikmat*, *xirad*, *donoiy* (*donolik*), *shinox* (*tanish*, *anglash*), *farhang*, *donishkesh*, *kajandesh*, *xirad*, *xiradmand*, *donishosor*, *donishshior*, *donishvar*, *donishinsho*, *donishiktisob*, *donishasar*, *dono*, *xono*, *biyno* katta miqdor va koʻlamdagi soʻzlar tahlil qilingan.

Bobning uchinchi bandi “**Arab tiliga oid maʼrifiy-falsafiy leksika**” deb nomlanadi. Ogahiy tarixiy asarlarida arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlar koʻpchilikni tashkil qilishi tabiiy. Solnomalardagi MFLga mansub birliklarning asosiy qismini diniy hamda tasavvufiy hayotga oid birliklar tashkil etadi. Ogahiy tarixiy asarlarida qoʻllanilgan arab lugʻaviy qatlamiga mansub soʻzlar tahlili, birinchidan, ushbu yodnomalargina emas, balki eski oʻzbek tilidagi ayrim arabiy birliklarning qoʻllanishi, ularning semantikasida yuz bergan oʻzgarishlar xususida maʼlum tasavvurlar bersa, ikkinchidan, ushbu qatlamga mansub baʼzi soʻzlarning shakllanish jarayoni va ular asosida yasalgan soʻzlarda eski oʻzbek tilining derivatsion imkoniyatlari haqida xulosalar beradi.

Arab tilidagi feʼllarning asosiy qismi uch undoshli ekani maʼlum⁵⁴. Bunday feʼllarning masdarlari maʼlum bir vazn (qolip)ga boʻysunmaydi. Ularga asar lugʻat fondidan ayrim misollar keltiramiz:

Fuʼl فُعْل qolipi. Masalan, ushbu qolipda yasalgan *buʼd* soʻzi Alisher Navoiy asarlarida “uzoqlik”, “firoqqa muhtalo boʻlgan”⁵⁵ maʼnolarini beradi. Bu soʻz asosiy mazmuni “uzoq boʻlmoq, ortda qolmoq” boʻlgan *baʼuda*⁵⁶ feʼlining masdari sifatida shakllangan.

Buʼd va *qurbat* oʻzlashmasi va uning asl turkiy ekvivalenti *yiroq* va *yovuq* soʻzlarining maʼno taʼkidi hamda ular oʻrtasida nozik farq mavjudligi bois bir oʻrinda ishlatilganini Alisher Navoiy lirikasida ham kuzatamiz. Masalan,

Kimki, vosil boʻldi, rafʼ oʻldi arobin *qurb-u buʼd*,

Kaʼba sukkonigʻa yoʻl xohi yiroq, xohi yovuq⁵⁷.

Baytda qoʻllanilgan *qurb* va *buʼd* hamda *yovuq* (yaqin) va *yiroq* soʻzlari orqali ham tazod, ham tarodif sanʼatlari yuzaga kelgan. Ushbu baytdagi *buʼd*ning

⁵³ شمس الدین محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶. جلد ۲ ص ۵۳۶.

⁵⁴ Талабов Э. Араб тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 34.

⁵⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 342.

⁵⁶ Носиров О., Юсупов М. Ан-наѳим. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриѳти, 2003. – Б. 69.

⁵⁷ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 233.

ziddi bo‘lgan *qurb* ham MFLga mansub birlik ekani ma’lum. *Qurb* so‘zi ham *bu’d* bilan aynan bir qolipda hosil bo‘lgan bo‘lib, “yaqinlashmoq, yaqin bo‘lmoq” mazmunidagi *qaruba* yoki *qariba* fe’lining masdari sanaladi⁵⁸.

Arab tilidan o‘zlashgan MFLga mansub birliklardan yana bir *qanoat* bo‘lib, Ogahiy tarixiy asarlarida turli munosabatlar bilan bu masalaga e’tibor qaratilgan. Xususan, bor mulk (mamlakat, hukmdorlik uchun berilgan hudud ma’nosida ham)ka qanoat qilmagan odam oqibatda bir parcha yer (qabr) bilan kifoyalanishga majbur bo‘ladi:

Ulki, mulkiga *qanoat* qilmadi,
Sho‘rish afzun qildi, rohat qilmadi.
Qoldi chekkan ranji zoe’ oqibat,
Bo‘ldi bir gaz yerga *qone’* oqibat. (FI, 120)

Qanoat sohibi *qone’*dir. Tome’ – tamagir.

Ko‘ngul gar istasang izzat na maqsum o‘lsa *qone’* bo‘l -
Ki, olam ahli ichra xor o‘lur har kim esa tome’⁵⁹.

Ikkilangan fe’llar va ular asosida yasalgan so‘zlar. “Ikkinchi va uchinchi o‘zak undoshi bir xil tovushdan iborat bo‘lgan fe’llar ikkilangan fe’llar deyiladi⁶⁰”. Ikkilangan fe’llar termini arabshunoslikdagi “muzaof” terminiga muvofiq keladi. Masalan, *abror* MFLga mansub birliklari muzaof “izzat qiladigan bo‘lmoq, odobli bo‘lmoq, mehribon bo‘lmoq”, “dindor, taqvodor, xudojo‘y, mo‘min bo‘lmoq”, “bo‘ysunmoq, itoat etmoq”, “qasamni bajarmoq, unga rioya etmoq” ma’nolaridagi *barra*⁶¹ fe’lidan hosil bo‘lgan. *Barr* (*borr*) so‘zi fe’lda qayd etilgan xususiyatlarga ega odam mazmunini anglatadi. Uning siniq ko‘plik shakli esa *abrordir*. *Abror* so‘zining o‘zbek tiliga bir so‘z “yaxshilar” deb tarjima qilinishi mohiyatan to‘g‘ridir. Alisher Navoiy ijodining gultoji bo‘lgan “Xamsa” bosh dostonining “Hayrat ul-abror” deb nomlanishi sabablaridan biri “Nasoyim”ga so‘ngso‘z vazifasini o‘taydigan quyidagi parcha mazmunidan ham ko‘rinib turibdi: “Ilohi, bu avliyoulloh asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu kitob mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘lg‘an azizlar dimog‘in mazkur bo‘lgan *abror muhabbati nasoyim*idin muattar va bahramand qilg‘aysen va bu kitob mumorasotig‘a mash‘uf bo‘lg‘on ahli tamayyuzlar ko‘nglin mastur bo‘lg‘on axyor futuvvati shamoyimidin munavvar va arjumand etgaysen”⁶². Ko‘rinadiki, tasavvufiy nuqtayi nazardan, jumladan, o‘zbek mumtoz adiblari axloqiy tamoyillari nuqtai nazaridan abrorlik, abrorlardan bo‘la olish “yaxshi” so‘zi ifoda etgan anglamdan ham o‘zgacharoq. Bu o‘zbek tilidagi “yaxshi” va “ezgu” so‘zlari o‘rtasidagi nozik ma’no tafovutiga o‘xshaydi.

Ogahiy tarixiy asarlarida *qutbu-l-abror* istilohini ham uchratamiz: “hazrat *qutbu-l-abror* Shayx Muxtor qaddasa sirrahu,..” (FI, 694). G.Izbullayeva

⁵⁸ Носиров О., Юсупов М. Ан-на’им. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 656.

⁵⁹ Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. Тошкент: Mumtoz so‘z – Б. 169.

⁶⁰ Иброҳимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. 1-қисм. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1997. – Б. 82.

⁶¹ Носиров О., Юсупов М. Ан-на’им. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 52.

⁶² Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 498.

yoʻzishicha, tasavvuf ilmidan saboq beruvchi shaxs – *shayx, murshid, pir, eshon, imom, voiz, xoja, mavlo, mavlono, maxdum* kabi unvonlar bilan tanilgan. Tasavvufdan saboq oluvchi shaxs esa *murid, solik, ahli dil, ahli hol, mutasavvif* kabi nomlar bilan atalgan. Tasavvuf boʻyicha oliy maqomlarga erishgan sohibkaromat pirlar – *valiy, avliyo, qutb, aqtob, avtod, chiltan, abdol, abror, ahror, nujabo, nuqabo, siddiq, gʻavs* va hokazolar deyilgan. Tasavvuf ahli esa baʼzan *sufiy, oshiq, faqir, haqir, darvesh, qalandar, junun, zohid, orif, devona, ahli muhabbat, ahli suluk, rijolul gʻayb, savdoyi, gado* kabi atamalar bilan ham ifoda etilgan⁶³. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, *qutbu-l-abror* – abrorlar tayanchi, ular ichida oʻz davri va makoniga koʻra kamolga yetgani sanaladi. Bunga *qutb* soʻzining oʻq⁶⁴ (tayanch nuqta) maʼnosi asos boʻladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ogahiy tarixiy asarlarida maʼrifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi”** deb nomlanadi. Bobning birinchi bandi **“Shakldosh maʼrifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi”** tarzida belgilangan. Unda Ogahiy tarixiy asarlari badiiyati, lingvopoetikasi boyligida MFLga mansub birliklar oʻrni haqida gap ketadi. Jumladan, Ogahiy tarixiy asarlarida tajnisi tomning oʻzbek adabiyotida mislini topish qiyin boʻlgan namunalarini uchramiz. Hatto Ogahiy tajnisi tom asosida ayrim sintaktik birliklarni mohirona yuzaga keltiradi. Masalan, “Jome’ ul-voqe’oti sultoniyy”dan joy olgan masnaviylarning birida shunday satrlar bor:

Birov oldi komin surib *yilqisin*,

Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin*. (JVS, 47^a)

Baytda qoʻllanilgan *yilqisin* soʻzining birinchisi “yilqisini”, “ot-ulovini”; ikkinchi va uchinchi qoʻllanishida “yilgisini”, “yilligini” tarzida tushunish mumkin. Bunda baytning umumiy mazmuni “birovlar maqsadiga erishib (gʻorat qilinganlar)ning ot-ulovini oldi, nafaqat bir ot-ulovini, balki ming ot-ulovini oldi” tarzida namoyon boʻladi. Endi aynan shu baytni

Birov oldi komin surub *yilqisin*,

Na bir *yilqisin*, balki ming *yilqisin* –

tarzida tushunib oʻqisak, bayt mazmuni “birovlar maqsadiga yetgan holda (gʻorat qilinganlar)ning yilqisini oldi. Ular nafaqat bir yilgi, balki ming yillik orzulariga erishdi” koʻrinishini oladi. Asarda soʻz ketayotgan voqealar bayoni ham, baytning umumiy ruh va mazmuni ham, muhimi, eski oʻzbek tilining grammatik qurilishi ham bunga imkon beradi⁶⁵.

Chalindi sanga koʻsi *navbat* bugun,

Falak avjidan oʻtti *navbat* bugun. (RD, 365^b)

Eski oʻzbek tilida shunday omonim soʻzlar borki, ular qaysidir sabab bilan hozirgi oʻzbek adabiy tilida shakldoshlarini yoʻqotgan. Shunday sabablardan biri hozirgi oʻzbek adabiy tilida juftlikdan biri isteʼmoldan chiqib ketganidir. Masalan, *navbat* soʻzining bugun “tuvaksimon sopolga teri qoplab yasalgan va ikkita choʻp

⁶³ Избуллаева Г. Дидактик асарларда тасаввуфий мактаб ва таълимот // Жамият ва инновациялар. №1. 2022. – Б. 230.

⁶⁴ <http://arabus.ru/search/قطب>

⁶⁵ Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018 – Б. 214-215.

bilan urib chalinadigan musiqa asbobi”, ya’ni *nog‘ora* degan ma’nosi yo‘q. *Navbat* aslida jang *nog‘orasi*, ya’ni duhul yoki tabl ni bildiradi. “Avval o‘zingga boq, keyin *nog‘ora* qoq” maqolida ham hozirgi emas, eski o‘zbek tilidagi *nog‘ora* nazarda tutilgan. Chunki *nog‘ora* qoqmoq jang boshlanganini bildirgan. Maqolda shu tariqa o‘z imkoniningni bilmasdan birov bilan mujodala (tortishish) va musoboqaga kirmaslik kerakligi qat’iy hukm ohangida berilgan. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da *navbat* I. Gal, daf’a, marta, karra. II. *Nog‘ora*⁶⁶ deb izohlanishi bejiz emas. Tarixiy tadrij qaraganda *navbat*ning *navbat* (gal, gazik) ma’nosi *nog‘ora* ma’nosidan kelib chiqqan. Chunki har *navbat* (katta *nog‘ora*, duhl, tabl) chalinganda *navbat* (askarlarning gali) almashgan, ularning bir-biriga o‘zlari uchun belgilangan vaqtni “mening *navbatim*”, ya’ni men uchun chalingan *nog‘ora* deb belgilashgan. Shu tarzda har *navbat* chalinishi *pos* deyiladi. Hozirgi adabiy tilimizda *pas* o‘sha *pos* so‘zining fonetik o‘zgargan shaklidir. Shuningdek, bu san’atga misol sifatida yana *daftar*, *shohid* kabi so‘zlar misol keltirilgan. Shu tariqa tanjisi *tajnisi muharraf* turi *usrat* عسرت (qiyinchilik) va *ishrat* عشرت; *mulk* va *malak*; *fulk* va *falak* so‘zlari orqali hamda *tajnisi aks* turi *ribqa* (burchak) va *riqba* (sirtmoq) birliklari orqali ochib berilgan. Shu bilan birga *nesh* (nishtar) – *no‘sh* (ichish); *anqo* عنقا va *qone* قانع so‘zlari ham mazkur band doirasida tahlil qilingan.

Bobning ikkinchi bandi “**Ma’nodosh ma’rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi**” deb nomlanadi. Sinonimiyaga oid aksar ishlarda eski o‘zbek tilida sinonimiya masalasiga oid alohida qaydlar uchramaydi. Bu borada bajarilgan kam sonli ishlardan biri M.Rahmatullayeva qalamiga mansub⁶⁷. Bu haqda maxsus to‘xtalishimizning boisi eski o‘zbek tilidagi sinonimlar materiali xususiyatlari bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilidan katta farq qilmasa ham, sinonimiya masalasiga munosabatda sezilarli farq bor. Ana o‘sha farqlardan yaqqol ko‘zga tashlanadigan jihati eski o‘zbek tilida sinonimlikni ko‘pincha nutqda ishlatilish xususiyatlari hisobga olingan. Masalan, *bog‘* va *chaman* leksemalarini ular anglatgan tushunchalar o‘rtasida farqlar e’tibori bilan sinonim sanamaslik mumkin, lekin eski o‘zbek tilida ularning matnda o‘zaro ma’nodoshlik kasb etishi hisobga olinib, *mutarodif* yoki *murodif* deb hisoblangan. Bu terminga turli manbalarga izoh berilgan. Masalan, “G‘iyosu-l-lug‘ot”da “birovning ortiga mingashib olgan”, “Nozimu-l-atibbo”da “kimningdir ortiga mingashgan” kabi izohlar beriladi va istiloh sifatida bir ma’noga dalolat qiluvchi ikki-uch so‘z deb talqin qilinadi. Bunga misol tariqasida *qalb* قلب va *fuod* فؤاد kabi so‘zlar keltiriladi. Shuning uchun eski o‘zbek tilidagi ma’nodosh so‘zlarga nisbatan ma’nodosh yoki *mutarodif* // *tarodif* istilohlarining o‘zini ishlatgan ma’qul. Bandda *bahs*, *jidol*, *jadal*, *mujodila*, *mubohasa* va boshqa misollarda qayd qilingan fikrlar isbotini ko‘rish mumkin. Masalan, “Chun munozara va mukolama rusumi itmomg‘a, *mujodala* va *mubohasa* umuri ixtitomg‘a yetushti...” (RD, 307^b)

⁶⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 416.

⁶⁷ Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишера Навои (на материале уникальной рукописи дивана „Наводир-ан-нихоя“, переписанной в XV в.) Автореф... диссер... на соиск...ученой степени канд... филол... наук. – Ташкент: 1965. – С. 20.

Mumtoz adiblarimiz tilida o‘zaro ma’nodosh MFLga mansub birlik zidlarining ham ma’nodoshlari borligi bois, ular o‘z ichida eng munosib muqobili bilan to‘la zidlik hosil qiladi. Shu tarzda *ibtido* – *intiho*; *bidoyat* – *nihoyat*; *og‘oz* – *anjom*; *avval* – *oxir*; *mabda’//matla’* – *maqta’* kabi mutazodlar juftliklari yuzaga kelgan. Bu juftliklarning yuzaga kelishi ma’lum qonuniyatlarga asoslanadi: 1. So‘z mansha’ – kelib chiqishi, tarixiy mansubligi e’tiborga olish. Masalan, *bosh* – *oyoq* turkiy; *ibtido* – *intiho* arabcha; *og‘oz* – *anjom* forsha so‘zlar ekani. 2. Arab tiliga mansub o‘zlashmalarda esa ularning vaznini ham e’tiborga olish. Masalan, *matla’* – *maqta’* juftligi *maf’al* مفعّل, *ibtido* – *intiho* juftligi *iftilo’* افتلا’ vaznlarida ekani. Ogahiy tarixiy asarlarida bularga jiddiy e’tibor qaratilganini kuzatamiz: “falaq *ibtidosidin* shafaq *intihosig’acha* yo‘l yurub,.. ” (RD, 341^a). Ba’zi o‘rinlarda bu urfga amal qilinmasa ham, biror maqsad (ko‘pincha poetika bilan bog‘liq) ko‘zlanadi. Masalan, “Bu da’voi maholg‘akim, qalam surubmen, sarmoyayi husulin qabzayi imkong‘a kiyur va bu sahroyi bekarong‘akim, qadam urubmen, masoliki *ibtidosin* manozili *poyong’a* etkur,..” (FI,) Bu matnida *ibtido* ziddi sifatida *intiho* emas, *poyon* ishlatilishi *zbekaron* so‘ziga qofiyalash orqali ichki ohangdoshlikka rioya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Aslida *masoliki ibtido* va *manozili ibtido* birikmalari bo‘lsa uch tomondan moslik yuzaga kelar edi: 1. Birikmalardagi har ikkala so‘z ham vazndosh (buni oldingi misol sifatidagi matnda falaq *ibtidosi* va shafaq *intihosi* juftligida ham ko‘rdik). 2. Birikmalarning birinchi komponenti qaratqichlari mutarodif, qaralmishlari mutazod. 3. Birikmalar tarkibiga har ikki komponent ham vazndosh (*mafoyi’l* va *iftilo’*). Bu holat Ogahiy asar jozibadorligini oshirishda ohang ahamiyatini yuqori baholaganiga dalolat qiladi.

“**Zid ma’noli ma’rifiy-falsafiy leksika lingvopoetikasi**” deb nomlangan uchinchi band masalaga oid mumtoz allomalar fikrlariga murojaat bilan boshlanadi. Sharq falsafasida olamni anglashda ziddiyatning o‘z o‘rni borligi e’tirof etiladi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy “modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e’tibor bergan”. Faylasuflar xulosasiga ko‘ra, “olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo‘lishi ham odatiy hol”⁶⁸.

Ogahiy tarixiy asarlari mutolaasidan shunga amin bo‘ldikki, uning qalamiga mansub solnomalardagi MFLga mansub birliklarning katta qismi asarlarning muqaddima qismida ishlatilgan. A.Rustamov “Navoiyning badiiy mahorati” kitobini “Shoirning badiiy mahoratini va ijodiy muvaffaqiyatini to‘liq anglash uchun estetik prinsiplarini aniqlash kerak. Buni bilish uchun esa san’atkorning borliq, jumladan, inson haqidagi fikrlarining falsafiy asoslarini bilish zarur”ligi bois Navoiy falsafiy aqidalarini sharhlash bilan boshlaydi⁶⁹. Ishda bu borada Ogahiy lingvopoetik mahoratini namoyon qiluvchi qator fazilatlar bayon qilingan. Masalan, “Ul guruhi zalolatpajuh qulovuzi ajal va qoidi *taqdiri azalning*

⁶⁸ Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – Б. 74.

⁶⁹ Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 7.

rahnamolig‘i...” (FI:673). Ushbu parcha tarkibiga nazar tashlasak, uning zikr etilgan holati, ya’ni gap boshlanmasidan ham dushmanning safar asnosidagi halokati haqida borayotgani ma’lum bo’ladi. Chunki *guruh* so’zi bir qism qo’shinni, *zalolatpajuh* (adashgan) so’zi o’sha guruhning dushman ekani, *qulovuzi ajal* (ajal yo’lboshchisi) birikmasi ular ushbu safar asnosida halok bo’lgani, ya’ni ajal etaklab chiqqani, *qoidi taqdiri azal* (azal taqdiri yetakchisi) izofiy zanjiri ularga bu azaliy taqdir bo’lganidan shukur hissi ifodasi ekani bilinib turibdi. Ogahiy tarixiy asarlari poetik xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, muarrix uchun ayni jihat, ya’ni dushman zabunligi azaliy qismat ekaniga shukrona keltirish muhim bo’lgan. Shu tarzda ushbu parchaning shakllanish bosqichlari quyidagi bosqichlardan iborat bo’lganini tasavvur qilish qiyin emas:

1. Birlamchi ahamiyatdagi falsafiy-ma’rifiy istiloh sanalmish *azal* so’zining Ogahiy tarixiy asarlarida urf tusiga kirgan jumla tuzilishiga ko’ra ikkinchi (agar ular uchta bo’lsa, uchinchi bo’lardi) o’rinda kelib, birinchi juz saj’ning qofiyalanuvchi qismi bo’lgan *ajalni* shakllantirgan.

2. Gap safarga chiqqan dushman haqida borayotgani uchun *ajal* so’zi *qulovuz* (yetakchi, yo’lboshchi)⁷⁰ bilan izofiy munosabatga kirishgan.

3. Qo’shin bir guruh, muhimi, dushman guruhi bo’lgani uchun unga ohangdosh *zalolatpajuh* – adashgan so’zi bilan sifatlanadi. Agar bu guruh xon qo’shinidan bo’lganda edi, masalan, *ko’hshukuh* – tog’doy shukuhli deb ta’riflanardi. Haqiqatan, quyidagi misolga e’tibor qarating: “*guruhi beshukuhni ta’oqub qilib...*” (FI, 757) Unga muqobil misol: “Firdavs-ul-iqbol”da “Qur’oni karim”ni yod olgan hofizlar jamoasi *guruhi donishpajuh* deb ta’riflanadi: “Va yana Furqoni majid hofizlaridin *guruhi donishpajuh...*” (FI, 851)

4. *Yo’lboshchi, adashish, guruh* (safarga chiqqanlar ma’nosi bilan) tushunchalari o’zaro tanosub hosil qilib, *rahnamoliq* (yo’l ko’rsatuvchilik) va *qoid* (peshvo, rahbar, yo’lboshchi) so’zlarini o’z qatoriga jalb qiladi.

5. *Zalolatpashuh* (adashgan) so’zi ham o’z, ham ko’chma ma’noda anglatishga qodir tarkib hosil qiladi.

Ko’rinadiki, bitta falsafiy-ma’rifiy istiloh go’zal badiiy ifodalar va yorqin fikrlar aks etishiga asos bo’la oladi.

XULOSA

1. Ogahiy tarixiy asarlari voqealar bayoni bilan bog’liq ravishda hamda muallifining g’oyat keng ma’rifiy-falsafiy tafakkuri mahsuli sifatida katta salmoqli ma’rifiy-falsafiy majmui hamdir.

2. Ogahiy tarixiy asarlari ma’rifiy-falsafiy leksikasining ichki guruhlari bir qadar nisbiy bo’lib, ularni umumlashtirish yoki boshqa guruhlarga bo’lish imkoniyati bor. Shu bilan birga ayrim istilohlar o’z ma’no ko’lami bilan bir necha guruhga mansub bo’linishi mumkin.

3. Ogahiy tarixiy asarlarida ma’rifiy-falsafiy leksika mavzuiy-semantik guruhlarning kengligi Abulg’oziy Bahodirxon tomonidan asos solinib,

⁷⁰ Иброҳимов С., Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 728.

Shermuhammad Munis tomonidan rivojlantirilgan Xorazm turkiy tarixnavislik maktabi an'analari hamda Ogahiyning xos muarrixlik mahorati mahsulidir.

4. Eski o'zbek tilining so'nggi, ya'ni XIX asr oxirlaridagi davriga kelib, ma'rifiy-falsafiy leksika doirasida o'zlashmalar miqdori katta bo'lganini Ogahiy tarixiy asarlari lug'at fondi ham ko'rsatadi. Moddiy-maishiy ashyolar, harbiy terminlar, ijtimoiy-siyosiy leksika kabi sohalarda o'zlashma lug'aviy birliklar aksariyatining turkiy muqobili bo'lsa, ma'rifiy-falsafiy leksika doirasida turkiy muqobili bo'lgan istilohlar miqdori ko'p emas.

5. Eroniy tillarga oid ma'rifiy-falsafiy leksik birliklarning katta qismi bugungi kunda ham faol leksika tarkibida mavjud.

6. Ogahiy tarixiy asarlaridagi arab lug'aviy qatlamiga mansub ma'rifiy-falsafiy leksikaning katta qismi bugungi kunda iste'moldan chiqqan, arxaizmga aylangan.

7. Ma'rifiy-falsafiy leksikaga mansub o'zlashmalar miqdori ko'pligi davr madaniy-ma'rifiy muhiti, adabiy ta'sir kabi omillar bilan ham bog'liq. Ogahiy o'z davriga kelib iste'moldan chiqqan ayrim ma'rifiy-falsafiy leksikaga oid birliklarni qayta tiklashga bo'lgan harakati bilan o'z zamondoshlaridan ajralib turadi.

8. Ogahiy tarixiy asarlarida ma'rifiy-falsafiy leksikaga mansub birliklarning lingvopoetik vosita sifatidagi o'рни boshqa mavzu guruhlariga nisbatan faol ekanini kuzatiladi.

9. Ma'rifiy-falsafiy leksikaga mansub shakldosh so'zlar badiiy vosita sifatida tajnis va iyhom san'atlarini yuzaga keltirishda muhim material bo'lgan.

10. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaga mansub ma'nodosh birliklar mumtoz filogogiyadagi mutarodif yoki tarodif istilohlarining to'g'ri tushinishi va ilmiy iste'molga qaytarish zaruratini anglashda yordam beradi.

11. Zid ma'noli ma'rifiy-falsafiy istilohlar esa olamni idrok qilishda zidlikning o'рни katta ekanini his etishimizda muhim ahamiyatga ega.

12. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ma'rifiy-falsafiy leksikaga mansub birliklar biror o'rinda shakliy ehtiyoj va zid ma'noli birliklar biror o'rinda ham shakliy ehtiyoj munosabati bilan ishlatilmagani Ogahiyning badiiy mahorat bobida Alisher Navoiyga eng munosib izdoshlardan ekaniga yana bir bor dalolat qiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/30.12.2019.Phil.55.02 AWARDING
ACADEMIC DEGREE AT URGANCH STATE UNIVERSITY**

**URGANCH STATE UNIVERSITY
KHALLIYEV JASURBEK ISKANDAROVICH**

**EDUCATIONAL-PHILOSOPHICAL LEXICON IN THE HISTORICAL
WORKS OF AGAHI
10.00.01 – the Uzbek language**

**DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences**

Urganch – 2024

The theme of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) is registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan by № B2020.2.PhD/Phil1262.

The dissertation has been prepared at Urgench State University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the scientific council website www.urdu.uz and on «Ziyonet» Information and Education portal www.ziyonet.uz.

Scientific consultant:

Urazbayev Abdulla Durdibayevich,
doctor of Science in Philology, docent

Official opponents:

Ismailov Gulom Mirzayevich
candidate of philological Sciences,
Associate Professor

Sharipov Fazliddin Galievich
doctor of philological sciences,
professor

Leading organization:

Karakalpak State University

The Defense of the dissertation will take place on « 7 » of January, 2025, at the meeting of the Scientific Council PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 at Urgench State University (Address: 220100, H. Alimdjan Street, 14. Urgench city. Phone: (+99862) 224-66-80; fax: (+99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz).

The dissertation can be reviewed at the Informational Resource Center of Urgench State University (Registration No. Q-759).

(Address: 220100, St. Kh.Alimdjan, 14. Urgench. Phone: (+99862) 224-67-00), (+99893) 9227734; e-mail: arm@urdu.uz).

The abstract of the dissertation is distributed on « 23 » december 2024.
(Protocol at the register № 41 on « 23 » december 2024).



B.I. Abdullayev

The i.a. chairman of the scientific council
awarding the scientific degree, doctor of
science in physics-mathematics, professor

S.S. Atajonov

The secretary of the scientific council at the
scientific council awarding the scientific
degree, (PhD) in philological science

A.I. Primov

The i.a. chairman of the scientific seminar at
the scientific council awarding scientific
degree, candidate of philological science,
docent

INTRODUCTION

(Annotation of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) in Philological Science)

Relevance and necessity of the dissertation topic. It is recognized in world linguistics that the lexical basis of each language reflects the history, way of thinking, national values, traditions, and customs of the people speaking that language. From this point of view, it is clear that a comprehensive examination of the thematic groups of words in the vocabulary of each language will serve to clarify the history of the nation and draw unbiased conclusions about its ability to speak. In a language, every word comes into existence in connection with the history of a people, and its subsequent "destiny" is also related to this process. It is clear to all of us that no language develops independently, and the possibility of enriching the vocabulary layer without contact with other languages is very low. This legality arises from the fact that the nation cannot develop without establishing relations with other nations in the economic, socio-political, military, cultural-educational, and other spheres and being separated from the world. The result of these connections is certainly observed in the vocabulary layer of the language, including the educational-philosophical lexicon. Therefore, the analysis of the educational-philosophical lexicon of a specific work, in particular, that of classical texts, is one of the most urgent problems in linguistics.

Relying on classical sources, a group of linguists studied the educational-philosophical lexicon in the historical layer of the language in world linguistics. Because of their rare ancient sources, petroglyphs and manuscripts are important scientific documents that reflect the vocabulary of the language of this period. In this regard, especially artistic and scientific sources, chronicles, and historical works served as the main object for the research of world linguists. In addition, ancient, rare resources are a mirror reflecting the unique culture of certain people. Due to the mentioned factors, the Turkic scientists of the world are conducting their linguistic research on the ancient or the old Turkic language or the period of the old Uzbek literary language based on the manuscript copies of the works created in that period. Also, to study linguistic phenomena historically is one of the important tasks of world linguistics, based on primary sources, and compare the language of written monuments created in different periods of language development. This case indicates that it is of urgent importance to conduct linguistic studies of the last period of the old Uzbek literary language, in particular the research of the topical vocabulary layer of historical works written by Agahi, which includes all the lexical units of the Uzbek language belonging to that period.

It is very important to analyse and research the lexical layer of ancient unique sources in Uzbek linguistics, to study the lexicon of Agahi's historical works, to justify the reasons and factors of the distribution of words in it into thematic groups, to determine the author's style, and to convert the manuscript copies of the historian's works into the current alphabet. This creates the need to research the lexicon of Agahi's historical works. Therefore, it is necessary to

"realise our national identity, study the ancient and rich history of our motherland, strengthen scientific research in this regard, and provide comprehensive support to the activities of humanitarian scientists"¹. At the moment, in our country, special attention is being paid to scientific research aimed at revealing many layers of our national cultural heritage in the fields of textual studies², literary source studies, linguistics, philosophy, and cultural history, which is the basis for further expanding the scope of scientific research in this regard. Studying the language of unique manuscript copies of Agahi's historical works, determining the scope of the educational and philosophical lexicon in them, determining their place in the art of historical works, and clarifying the historical roots of lexical units that have not been specially studied in a monographic plan so far, shows the relevance of the dissertation topic.

The dissertation research serves to a certain extent to realize the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 22, 2019 "On increasing the prestige and position of the Uzbek language as a state language," PQ-2995 dated May 24, 2017 "Measures to further improve the system of preservation, research, and promotion of ancient written sources on events" dated July 28, 2017; "On increasing the efficiency of spiritual and educational work and raising the development of the field to a new level"; and "Addition on improving the system of preservation and research of ancient written sources" dated February 10, 2022. "On measures" and other regulatory legal documents related to this activity.

Correspondence of the research with the priorities of the development of science and technology in the republic. This research was carried out within the framework of the 1st paragraph in the priority direction of republican science and technology development: "Spiritual, ethical, and cultural development of a democratic and legal society, formation of an innovative economy".

Research scope of the problem: The range of literature on the topic of historical lexicon in world linguistics is extremely wide. A.D. Kalmikov, one of the Russian scientists, issued the translation of "Firdavs ul-Iqbal" about Agahi's works. B.V. Lunin gave some notes about the history and source studies of Khorezm³. A.L. Kunn gave preliminary information about Khorezm manuscripts⁴.

The issue of the historical educational-philosophical lexicon in the Uzbek language has been studied in a number of monographic and related works in our linguistics. The doctor's thesis, defended by A. Rustamov⁵, and the work co-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги "Таракқиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади" мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПК-2995-сон "Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори.

³ Бартольд В.В. Сочинения. IX том. М., 1977. С.444; Луин Б.В. Прошлое и настоящее Хорезма в науке// История Хорезма. Ташкент, 1976. С. 6-8; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание Тюркских рукописей института народов Азии. М., 1965; Дмитриева Л.В. Каталог тюркских рукописей. – М., 2002.

⁴ Кунн А. Заметки о Хивинском ханстве // Туркистанские ведомости, 1873. № 40. –С.158.

⁵ Рустамов А. Фонетико-морфологические особенности языка Алишера Навои. Авт. дисс. ... докт. филол.н. – Ташкент: 1966; Бафоев Р. Лексика произведений Алишера Навои (лексико-семантические, статистические и тематические исследования). Авт. дисс. ... докт. филол.н. – Ташкент: 1989; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: 1983; Эшонкулов Б.Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилида арабий лугавий ўзлашмаларнинг парадигмик ассимиляция муносабати. Филол. фан. док. дис... автореф. – Тошкент, 1996. –Б. 21.

